**Hujjat 09.11.2017 sanasi holatiga**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

## TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDA ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQ QO'LYOZMALARI MARKAZI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH HAMDA KUTUBXONANING YANGI BINOSI QURILISHINI JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta'limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 8-iyuldagi PQ-2204-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta'limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 8-iyuldagi PQ-2204-son qarori bilan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzurida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) tashkil etilganligi, uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilanganligi, tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

Markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z muhriga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida hisob raqamlariga va bank hisob raqamlariga ega;

Markaz direktori — Toshkent davlat sharqshunoslik institutining prorektori O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i bilan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti bilan birgalikda 2014-yil 1-sentabrgacha bo'lgan muddatda:

**Hujjat 05.04.2022 sanasi holatiga**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING

QARORI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI HUZURIDA ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQ QO'LYOZMALARI MARKAZI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH HAMDA KUTUBXONANING YANGI BINOSI QURILISHINI JADALLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta'limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 8-iyuldagi PQ-2204-son qarorini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta'limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2014-yil 8-iyuldagi PQ-2204-son qarori bilan Toshkent davlat sharqshunoslik instituti huzurida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi (keyingi o'rinlarda Markaz deb ataladi) tashkil etilganligi, uning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilanganligi, tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Belgilab qo'yilsinki:

Markaz davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi, o'z muhriga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligida hisob raqamlariga va bank hisob raqamlariga ega;

Markaz direktori — Toshkent davlat sharqshunoslik institutining prorektori O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'i bilan belgilangan tartibda lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Toshkent davlat sharqshunoslik instituti bilan birgalikda 2014-yil 1-sentabrgacha bo'lgan muddatda:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta’limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2014-yil 8-iyuldagi PQ-2204-son qaroriga muvofiq o‘tkazilayotgan attestatsiya yakunlariga ko‘ra Markazni yosh mutaxassislar hamda qadimiy sharq qo‘lyozmalarini va tarixiy hujjatlarni saqlash va turkumlashtirish, ilmiy tavsiflarni tuzish va qo‘lyozmalarni ilmiy sharhlab tarjima qilish sohasida ish tajribasiga ega bo‘lgan yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar bilan to‘ldirishda ko‘maklashsinlar;

Markazga yuklangan sharq qo‘lyozmalarini saqlash, kataloglashtirish va o‘rganish bilan bog‘liq vazifalardan kelib chiqqan holda uning faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinlar;

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga, Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlariga, Toshkent davlat sharqshunoslik institutining dasturlari va o‘quv rejalariga tashkil etilgan Markaz uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, shu jumladan manbashunoslik, matnshunoslik va sharq falsafasi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni ta’minlashni hisobga olgan holda o‘zgartirishlar kiritsinlar;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda Markaz faoliyati doirasida Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro ekspertlar va maslahatchilarni hamkorlikka jalb etish va tajriba almashish masalasini ishlab chiqsinlar.

4. Markazga ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarning xodimlarini, oliy ta’lim muassasalarining, shu jumladan xorijiy oliy ta’lim muassasalarining olimlari va o‘qituvchilarini Toshkent davlat sharqshunoslik institutining tayanch doktorantlar va doktorantlarini, magistratura va bakalavriati talabalarini shartnoma asosida tadqiqotlarga jalb etish, shuningdek Markazning xodimlarini hamda tadqiqotlar uchun jalb etiladigan mutaxassislar va ekspertlarni xorijiy tadqiqot markazlariga va oliy ta’lim muassasalariga stajirovka va o‘qishga yuborish huquqi berilsin.

5. Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tuzilmasini yanada maqbullashtirish hamda respublika akademik ilm-fani va oliy ta’limining integratsiyasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2014-yil 8-iyuldagi PQ-2204-son qaroriga muvofiq o‘tkazilayotgan attestatsiya yakunlariga ko‘ra Markazni yosh mutaxassislar hamda qadimiy sharq qo‘lyozmalarini va tarixiy hujjatlarni saqlash va turkumlashtirish, ilmiy tavsiflarni tuzish va qo‘lyozmalarni ilmiy sharhlab tarjima qilish sohasida ish tajribasiga ega bo‘lgan yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar bilan to‘ldirishda ko‘maklashsinlar;

Markazga yuklangan sharq qo‘lyozmalarini saqlash, kataloglashtirish va o‘rganish bilan bog‘liq vazifalardan kelib chiqqan holda uning faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinlar;

Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga, Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlariga, Toshkent davlat sharqshunoslik institutining dasturlari va o‘quv rejalariga tashkil etilgan Markaz uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashni, shu jumladan manbashunoslik, matnshunoslik va sharq falsafasi bo‘yicha kadrlar tayyorlashni ta’minlashni hisobga olgan holda o‘zgartirishlar kiritsinlar;

O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi hamda xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda Markaz faoliyati doirasida Markaz faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro ekspertlar va maslahatchilarni hamkorlikka jalb etish va tajriba almashish masalasini ishlab chiqsinlar.

4. Markazga ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarning xodimlarini, oliy ta’lim muassasalarining, shu jumladan xorijiy oliy ta’lim muassasalarining olimlari va o‘qituvchilarini Toshkent davlat sharqshunoslik institutining tayanch doktorantlar va doktorantlarini, magistratura va bakalavriati talabalarini shartnoma asosida tadqiqotlarga jalb etish, shuningdek Markazning xodimlarini hamda tadqiqotlar uchun jalb etiladigan mutaxassislar va ekspertlarni xorijiy tadqiqot markazlariga va oliy ta’lim muassasalariga stajirovka va o‘qishga yuborish huquqi berilsin.

5. Quyidagilar Markaz faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

Fan va texnologiyalar agentligi tomonidan o‘tkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lar, shuningdek tashkil etiladigan Markaz kutubxonasini Sharq qo‘lyozmalari fondi bilan birgalikda noyob ilmiy obyekt sifatida saqlash uchun ajratiladigan maqsadli budjet mablag‘lari;

xo‘jalik faoliyatidan, shu jumladan noshirlik faoliyatidan tushadigan mablag‘lar, xalqaro moliyaviy institutlar va boshqa institutlarning, xorijiy hukumat tashkilotlari va donorlik tashkilotlarining grantlari, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6. Markaz quyidagi manzilga joylashtirilsin: Toshkent shahri, M. Ulug‘bek tumani, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 81.

7. Yozma meros yodgorliklari mavjudligi va saqlanganligini o‘rganish hamda ularni saqlash joylarini turkumlashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish yuzasidan ilovaga muvofiq tarkibda ishchi guruh tashkil etilsin.

Ishchi guruh (A. Ikramov) o‘rganish yakunlari bo‘yicha joriy yil oxirigacha:

barcha davlat muassasalari va taniqli xususiy kolleksiyalar bo‘yicha qo‘lyozmalar, toshbosma usulidagi nashrlar va boshqa tarixiy hujjatlarning to‘liq reyestrini tayyorlasin;

qo‘lyozmalarning tarixiy-madaniy va ilmiy ahamiyatidan kelib chiqib, ularning zarur talablarga, shu jumladan kimyoviy va bakterial ochiq ishlov berish o‘tkazilishiga, namlik va harorat rejimini muayyan darajada saqlashga, shuningdek tegishli mehnat va moddiy resurslar mavjudligiga rioya qilgan holda saqlash joylarida saqlanishini ta’minlash imkoniyatiga alohida e’tibor berib qo‘lyozmalarni saqlash joylarini tizimlashtirish yuzasidan takliflar kiritsin;

saqlanayotgan qo‘lyozmalarni va yozma merosning boshqa yodgorliklarini, ayniqsa xususiy kolleksiyalardagi qo‘lyozmalar va yozma meros yodgorliklarini doimiy ravishda to‘ldirish, skanerlash va raqamlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va amalga oshirsin, ularda aholida saqlanayotgan tarixiy hujjatlarni ixtisoslashtirilgan davlat muassasalariga saqlash uchun topshirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini nazarda tutsin.

Fan va texnologiyalar agentligi tomonidan o‘tkaziladigan grant tanlovlari natijalari bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lar, shuningdek tashkil etiladigan Markaz kutubxonasini Sharq qo‘lyozmalari fondi bilan birgalikda noyob ilmiy obyekt sifatida saqlash uchun ajratiladigan maqsadli budjet mablag‘lari;

xo‘jalik faoliyatidan, shu jumladan noshirlik faoliyatidan tushadigan mablag‘lar, xalqaro moliyaviy institutlar va boshqa institutlarning, xorijiy hukumat tashkilotlari va donorlik tashkilotlarining grantlari, shuningdek qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

6. Markaz quyidagi manzilga joylashtirilsin: Toshkent shahri, M. Ulug‘bek tumani, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 81.

7. Yozma meros yodgorliklari mavjudligi va saqlanganligini o‘rganish hamda ularni saqlash joylarini turkumlashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish yuzasidan ilovaga muvofiq tarkibda ishchi guruh tashkil etilsin.

Ishchi guruh (A. Ikramov) o‘rganish yakunlari bo‘yicha joriy yil oxirigacha:

barcha davlat muassasalari va taniqli xususiy kolleksiyalar bo‘yicha qo‘lyozmalar, toshbosma usulidagi nashrlar va boshqa tarixiy hujjatlarning to‘liq reyestrini tayyorlasin;

qo‘lyozmalarning tarixiy-madaniy va ilmiy ahamiyatidan kelib chiqib, ularning zarur talablarga, shu jumladan kimyoviy va bakterial ochiq ishlov berish o‘tkazilishiga, namlik va harorat rejimini muayyan darajada saqlashga, shuningdek tegishli mehnat va moddiy resurslar mavjudligiga rioya qilgan holda saqlash joylarida saqlanishini ta’minlash imkoniyatiga alohida e’tibor berib qo‘lyozmalarni saqlash joylarini tizimlashtirish yuzasidan takliflar kiritsin;

saqlanayotgan qo‘lyozmalarni va yozma merosning boshqa yodgorliklarini, ayniqsa xususiy kolleksiyalardagi qo‘lyozmalar va yozma meros yodgorliklarini doimiy ravishda to‘ldirish, skanerlash va raqamlashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va amalga oshirsin, ularda aholida saqlanayotgan tarixiy hujjatlarni ixtisoslashtirilgan davlat muassasalariga saqlash uchun topshirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlarini nazarda tutsin.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2016-yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida Markazda saqlanayotgan qadimiy qoʻlyozmalarning eng zamonaviy xalqaro standartlarga muvofiq saqlanishi va bosqichma-bosqich restavratsiya qilinishini taʼminlash uchun qoʻshimcha mablagʻlarni, shu jumladan zarur reaktivlar va sarflash materiallari sotib olish uchun mablagʻlarni nazarda tutsin.

9. Toshkent shahar hokimligi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda Mirzo Ulugʻbek tumani, Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 81-uy manzilida Markaz kutubxonasining yangi binosini qurish uchun yer uchastkasi ajratilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

10. Markaz kutubxonasi binosini qurish boʻyicha:

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi — buyurtmachi etib;

“ToshuyjoyLITI” ochiq aksiyadorlik jamiyati — bosh loyihalashtiruvchi etib;

bosh pudratchi Oʻmon Sultonligining Oʻzbekistondagi diplomatik missiyasi tomonidan buyurtmachi bilan birgalikda oʻtkazilayotgan tanlov natijalari boʻyicha belgilansin.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qoʻmitasi Markazning yangi kutubxonasini qurish ishlari bajarilishining sifati ustidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini oʻrnatsin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, “Oʻzqurilishmateriallari” aksiyadorlik kompaniyasi va “Oʻzmetkombinat” ochiq aksiyadorlik jamiyati Markaz kutubxonasi binosini qurish uchun bosh loyihalashtiruvchining asoslangan hisob-kitoblari boʻyicha bosh pudratchiga sement va metall prokati boshqariladigan narxlar boʻyicha ajratilishini nazarda tutsinlar.

13. Vakolatli tijorat banklariga Markaz kutubxonasini qurish davrida bank operatsiyalarini amalga oshirishda Oʻmon Sultonligi Elchixonasining, buyurtmachi va pudrat tashkilotlarining Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini moliyalashtirish uchun maxsus ochilgan hisob raqamlarini vositachilik yigʻimlari undirilishidan ozod qilish tavsiya etilsin.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2016-yildan boshlab Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida Markazda saqlanayotgan qadimiy qoʻlyozmalarning eng zamonaviy xalqaro standartlarga muvofiq saqlanishi va bosqichma-bosqich restavratsiya qilinishini taʼminlash uchun qoʻshimcha mablagʻlarni, shu jumladan zarur reaktivlar va sarflash materiallari sotib olish uchun mablagʻlarni nazarda tutsin.

9. Toshkent shahar hokimligi tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi bilan birgalikda Mirzo Ulugʻbek tumani, Mirzo Ulugʻbek koʻchasi, 81-uy manzilida Markaz kutubxonasining yangi binosini qurish uchun yer uchastkasi ajratilganligi maʼlumot uchun qabul qilinsin.

10. Markaz kutubxonasi binosini qurish boʻyicha:

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining “Yagona buyurtmachi xizmati” injiniring kompaniyasi — buyurtmachi etib;

“ToshuyjoyLITI” ochiq aksiyadorlik jamiyati — bosh loyihalashtiruvchi etib;

bosh pudratchi Oʻmon Sultonligining Oʻzbekistondagi diplomatik missiyasi tomonidan buyurtmachi bilan birgalikda oʻtkazilayotgan tanlov natijalari boʻyicha belgilansin.

11. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qoʻmitasi Markazning yangi kutubxonasini qurish ishlari bajarilishining sifati ustidan davlat arxitektura-qurilish nazoratini oʻrnatsin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, “Oʻzqurilishmateriallari” aksiyadorlik kompaniyasi va “Oʻzmetkombinat” ochiq aksiyadorlik jamiyati Markaz kutubxonasi binosini qurish uchun bosh loyihalashtiruvchining asoslangan hisob-kitoblari boʻyicha bosh pudratchiga sement va metall prokati boshqariladigan narxlar boʻyicha ajratilishini nazarda tutsinlar.

13. Vakolatli tijorat banklariga Markaz kutubxonasini qurish davrida bank operatsiyalarini amalga oshirishda Oʻmon Sultonligi Elchixonasining, buyurtmachi va pudrat tashkilotlarining Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini moliyalashtirish uchun maxsus ochilgan hisob raqamlarini vositachilik yigʻimlari undirilishidan ozod qilish tavsiya etilsin.

14. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyurtmanomalariga binoan Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini amalga oshirishda ishtirok etadigan xorijiy mutaxassislarga ko'p martalik vizalar bir yil muddatga konsullik yig'imlari va boshqa yig'imlar undirilmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

15. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyurtmanomalariga binoan Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijiy mutaxassislarga ko'p martalik vizalar berilishini va ularning muddati uzaytirilishini, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida vaqtinchalik yashash joyida vaqtincha ro'yxatdan o'tkazilishini va vaqtincha ro'yxatdan o'tkazish muddati uzaytirilishini davlat bojlarini undirmasdan ta'minlasin.

16. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining buyurtmanomalariga binoan Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijiy mutaxassislarga Toshkent shahrining xalqaro aeroporti VIP zali orqali to'lov undirmasdan tekin xizmat ko'rsatilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

17. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S. Azimov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.I. Ikramov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,

2014-yil 7-avgust,

219-son

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 7-avgustdagi 219-son qaroriga
ILOVA

**Yozma meros yodgorliklari mavjudligi va saqlanishini o'rganish hamda ularni saqlash joylarini tizimlashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh**

TARKIBI

14. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyurtmanomalariga binoan Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini amalga oshirishda ishtirok etadigan xorijiy mutaxassislarga ko'p martalik vizalar bir yil muddatga konsullik yig'imlari va boshqa yig'imlar undirilmasdan belgilangan tartibda rasmiylashtirilishini ta'minlasin.

15. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyurtmanomalariga binoan Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijiy mutaxassislarga ko'p martalik vizalar berilishini va ularning muddati uzaytirilishini, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinishini va muddati uzaytirilishini davlat bojlarini undirmasdan ta'minlasin.

16. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining buyurtmanomalariga binoan Markaz kutubxonasi binosini qurish loyihasini amalga oshirishda ishtirok etayotgan xorijiy mutaxassislarga Toshkent shahrining xalqaro aeroporti VIP zali orqali to'lov undirmasdan tekin xizmat ko'rsatilishini belgilangan tartibda ta'minlasin.

17. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S. Azimov va O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.I. Ikramov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,

2014-yil 7-avgust,

219-son

Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 7-avgustdagi 219-son qaroriga
ILOVA

**Yozma meros yodgorliklari mavjudligi va saqlanishini o'rganish hamda ularni saqlash joylarini tizimlashtirish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh**

TARKIBI

| | |
|---|---|
| Ikramov A.I. | — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari |
| Abduxalimov B.A. | — Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari |
| Abdullayev A.X. | — “O‘zarxiv” agentligi bosh direktori |
| Xodjayev A.A. | — A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi direktori |
| Mannonov A.M. | — Toshkent davlat sharqshunoslik instituti rektori |
| Musayev A. | — Madaniyat va sport ishlari vazirligining boshqarma boshlig‘i |
| Hasanov S.R.� | — A. Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori |
| Mahmudov N.M. | — Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti direktori |
| Abdullayev R.M. | — Fanlar akademiyasining Tarix instituti direktori |
| Ismoilova J.X. | — Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori |
| Islomov Z. | — Toshkent islom universiteti prorektori |
| Mansurov A. | — O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisining o‘rinbosari |
| Ziyodov Sh. | — Imom Buxoriy xalqaro markazi direktori |

Izoh: ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 32-son, 406-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son; 29.09.2020-y., 09/20/593/1340-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*

| | |
|---|---|
| Ikramov A.I. | — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari |
| Abduxalimov B.A. | — Fanlar akademiyasining vitse-prezidenti, ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari |
| Abdullayev A.X. | — “O‘zarxiv” agentligi bosh direktori |
| Xodjayev A.A. | — A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi direktori |
| Mannonov A.M. | — Toshkent davlat sharqshunoslik instituti rektori |
| Musayev A. | — Madaniyat va sport ishlari vazirligining boshqarma boshlig‘i |
| Hasanov S.R.� | — A. Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi direktori |
| Mahmudov N.M. | — Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti direktori |
| Abdullayev R.M. | — Fanlar akademiyasining Tarix instituti direktori |
| Ismoilova J.X. | — Fanlar akademiyasining O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori |
| Islomov Z. | — Toshkent islom universiteti prorektori |
| Mansurov A. | — O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisining o‘rinbosari |
| Ziyodov Sh. | — Imom Buxoriy xalqaro markazi direktori |

Izoh: ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoxud zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014-y., 32-son, 406-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.11.2017-y., 09/17/898/0234-son; 29.09.2020-y., 09/20/593/1340-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)*